



GRIPP va O'RI BO'YICHA HAFTALIK MILLIY BYULLETEN

2025 yil 32 haftasi
(04.08.25 - 10.08.25)

Rezyume

Haftalik milliy byulletenda grippga o'xshash kasalliklar (GO'K), o'tkir respirator virusli infeksiyalar (O'RVI) va ularning og'ir shakllari (OO'RI) haqida ma'lumot beriladi.

Shuningdek, unda aholining turli yosh guruhlarida yuqoridagi infeksiyalar bilan kasallanish ko'rsatkichlari hamda gripp va o'tkir respirator patogenlar, shu jumladan COVID-19ga laboratoriya tekshiruvlari natijalari taqdim etilgan.

Ma'lumotlar 2025-yilning 32-haftasida respublika bo'yicha, jumladan Toshkent shahrining tayanch punktlari bo'yicha taqdim etilgan.

Kunlik nazorat

2025 yil 32 haftasida respublikada epidemik vaziyat 2024 yilning 32 haftasiga nisbatan O'RVI ko'rsatkichlari 9,7%ga, GO'K kasallik ko'rsatkichlari 14,3%ga pasayishi kuzatilgan. Shu bilan birga o'tkir zotiljam ko'rsatkichlari 0,8%ga o'sishi kuzatilgan.


GO'Kning eng yuqori ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatga olingan.

O'RVIning eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri, Buxoro, Namangan viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatga olingan.

O'tkir zotiljam kasalligida eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri, Namangan viloyatida va Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatga olingan.

Mavsum boshidan GO'K bilan og'irgan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvida 10,7% gripp virusiga musbat natija aniqlangan.


1-rasm. 2024/25 va 2023/24 mavsumlardagi GO'K ko'rsatkichi 10 000 aholiga nisbatan.



Grippga o'xshash kasalliklar 2025 yilning 32 haftasida 2025 yilning 31 haftasiga nisbatan ma'muriy hududlarning viloyat markazlari, Nukus va Toshkent shaharlarida 2,5 marotabaga ko'paygan, 2024 yilning 32 haftasiga nisbatan kasallik ko'rsatkichi 64,3%ga pasayishi kuzatilgan.

Eng ko'p GO'K holatlari Toshkent shaharida ro'yxatga olingan.

2-rasm. 2024/25 va 2023/24 mavsumlardagi O'RI ko'rsatkichi 10000 aholiga nisbatan.




2025 yilning 32 haftasida respublika aholisi o'rtasida O'RVVI bilan kasallanish ko'rsatkichi 2025 yilning 31 haftasiga nisbatan ma'muriy hududlarning viloyat markazlarida, Nukus va Toshkent shaharlarida 3,8%ga ko'paygan, 2024 yilning 32 haftasiga nisbatan kasallik ko'rsatkichi 38,5%ga pasayishi kuzatilgan.

Joriy haftada O'RVVI kasalligining eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent, Buxoro va Namangan shaharlarida ro'yxatga olingan.

2025 yilning 32 haftasida O'RVVI kasalligi ko'rsatkichlari epidemik bo'sag'adan 32,6%ga past bo'lgan.

3-rasm. 2024/25 va 2023/24 mavsumlarda zotiljam ko'rsatkichi 10 000 aholiga nisbatan.



2025 yilning 32 haftasida o'tkir zotiljam kasalligi ko'rsatkichi 2025 yilning 31 haftasiga nisbatan 8,3%ga kamaygan, 2024 yilning 32 haftasiga nisbatan kasallik ko'rsatkichi 52,8%ga pasayishi kuzatilgan.

Eng yuqori kasallik ko'rsatkichlari Toshkent, Namangan va Nukus shaharlarida ro'yxatga olingan.

GO'K bo'yicha nazorat


Grippga o'xshash kasalliklar holatini standart aniqlash (JSST - 2014):

O'tkir respirator infeksiyalar quyidagi belgi bilan namoyon bo'lganda:

- ko'rik vaqtida yoki anamnezida tana haroratini 38S^odan yuqori bo'lishi;
- yo'tal;
- kasallik boshlangandan 10 kun davomida.

32 haftada joriy yilda GO'K kasallanish ko'rsatkichlari 30 - 64 yosh guruhlarda qayd etildi. Qolgan yosh guruhlarida kasallanish holatlari qayd etilmadi.

4-rasm. 2024/25 yillar mavsumidagi GO'K ko'rsatkichi 100 000 aholiga nisbatan.




O'tkir respirator infeksiyasi holatlarining standart aniqlanishi (O'RI, ECDC/JSST):


- o'tkir boshlanishi (oxirgi 10 kun) quyidagi respirator kasallik belgilarining bittasini ro'yxatga olinishi kuzatiladi:
- yo'tal;
- tomoqda og'riq;
- hansirash;
- tumov/rinit
- shuningdek, infeksiya sababli yuzaga kelganligi haqidagi klinik xulosa.

O'RVi bilan kasallanganlarni 5 - 14 yosh, 15 - 29 yosh va 30 - 64 yosh guruhlarida kasallanish ko'rsatkichlari ko'paygan. Boshqa yosh guruhlarida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishi kuzatilgan.

5-rasm. 2024/25 yillar mavsumidagi O'RI ko'rsatkichi 100 000 aholiga nisbatan.




6-rasm. GO'Kda gripp monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



2025 yilning 32 haftasida GO'K bo'yicha dozorli nazorat doirasida grippga o'tkazilgan laborator tekshiruvlarda gripp viruslari aniqlanmadi.

Mavsum boshidan GO'K bilan og'rikan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlari 10,7%da gripp viruslariga musbat natija aniqlandi. Jami grippga musbat natijalarining 64,2%da gripp A /H1N1 virusiga, 34,7%da gripp B virusiga, 1,1%da gripp A /H3N2 virusiga to'g'ri keldi.


7-rasm. GO'Kda O'RVl monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



2025-yilning 32-haftasida GO'K bo'yicha dozorli nazorat doirasida O'RVlga laborator tekshiruvlarda musbat natijalar aniqlanmadi.

Mavsum boshidan GO'K holatlarining 14,3%da O'RVlga musbat natija aniqlandi. Musbat natijalardan 50,4%da rinoviruslarga, 14,2%da respirator sintitsial viruslarga, 11,8%da adenoviruslarga, 9,4%da mavsumiy koronaviruslarga, 6,3%da bokaviruslarga, 3,9%dan paragripp viruslarga va metapnevoviruslarga to'g'ri keldi.

8-rasm. GO'Kda SARS-CoV-2 monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



2025 yilning 32-haftasida aniqlangan GO'K holatlaridan olingan klinik namunalarni SARS-CoV-2 yangi koronavirusiga laborator tekshiruvlarda musbat natijalar aniqlanmadi.

Mavsum boshidan GO'K bilan og'riqan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlarning 1,8% da SARS-CoV-2 virusiga musbat natija aniqlandi.


OO'RI bo'yicha nazorat

Og'ir o'tkir respirator infeksiya holatini standart tushunchasi (OO'RI, JSST-2014):


- oxirgi 10 kun davomida boshlangan o'tkir respirator kasallik va quyidagi belgilar kuzatiladi:
- anamnezda yoki ko'rik vaqtida tana haroratini 38S^odan yuqori bo'lishi;
- yo'tal;
- kasalxonaga yotqizilish zarurati.

OO'RI bo'yicha joriy yilning 32 haftasida 0 - 4 yosh, 5 - 14 yosh, hamda 30 - 64 yosh guruhlarida kasallanish ko'rsatkichlarini ko'payishi kuzatilgan. Boshqa yosh guruhlarida kasallanish ko'rsatkichi kamaygan.

9-rasm. 2024/25 yillar mavsumidagi OO'RI ko'rsatkichi 100 000 aholiga nisbatan.




10-rasm. OO'RIda gripp monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



025 yilning 32 haftasida OO'RIda bo'yicha dozorli nazorat doirasida grippga o'tkazilgan laborator tekshiruvlarda gripp viruslari aniqlanmadi.

Mavsum boshidan OO'RIda bilan og'rikan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlari 14,4%da gripp viruslariga musbat natija aniqlandi. Jami grippga musbat natijalarining 55,6%da gripp B virusiga, 42,7%da gripp A/H1N1 virusiga, 1,7%da gripp A/H3N2 virusiga to'g'ri keldi.


11-rasm. OO'RIda O'RVIda monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



2025-yilning 32-haftasida OO'RIda bo'yicha dozorli nazorat doirasida O'RVIda laborator tekshiruvlarda musbat natijalar aniqlanmadi.

Mavsum boshidan OO'RIda holatlarining 19,9%da O'RVIda musbat natija aniqlandi. Musbat natijalardan 32,8%da respirator sinsital viruslarga, 30,3%da rinoviruslarga, 10,6%da adenoviruslarga, 10,2%da paragripp viruslariga, 8,7%da metapnevoviruslarga, 4,8%da mavsumiy koronaviruslarga, 2,5%da bokaviruslarga to'g'ri keldi.

12-rasm. OO'RIda SARS-CoV-2 monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



2025 yilning 32-haftasida aniqlangan OO'RI holatlaridan olingan klinik namunalarni SARS-CoV-2 yangi koronavirusiga laborator tekshiruvlarning 5,6%da musbat natijalar aniqlandi.

Mavsum boshidan OO'RI bilan og'rigan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlari 4,5%da SARS-CoV-2 virusiga musbat natija aniqlandi.